

YOSHLAR EKOLOGIK ONGI VA EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRTISHDA XALQ OG'ZAKI IJODINING TARBIYAVIY IMKONIYATLARI

Abduhalimova E'zoza Abduqayum qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari)

1-kurs magistranti

<https://orcid.org/0009-0004-8277-1817>

abduhalimovaezoza@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini shakllantirish jarayonida xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Unda qadimdan mavjud bo'lgan maqol, hadis, doston, rivoyat va hikmatlarning ekologik mazmuni ochib berilib, ularning tabiatga nisbatan hurmat, ehtiyotkorlik va mehr-muhabbatni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ekologik ong, ekologik madaniyat, xalq og'zaki ijodi, maqol, doston, hadis, rivoyat, hikmat, tarbiya.

ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ НАРОДНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ МОЛОДЕЖИ

Аннотация В данной статье анализируются воспитательные возможности устного народного творчества в формировании экологического сознания и культуры молодежи. Раскрывается экологическое содержание пословиц, хадисов, дастанов, преданий и изречений, существующих с древних времен, а также их роль в воспитании уважительного и бережного отношения к природе.

Ключевые слова: экологическое сознание, экологическая культура, устное народное творчество, пословица, дастан, хадис, предание, изречение, воспитание, природа.

EDUCATIONAL POSSIBILITIES OF FOLK FOLK LITERATURE IN FORMING ECOLOGICAL AWARENESS AND ECOLOGICAL CULTURE OF YOUTH

Annotation This article analyzes the educational potential of folk oral creativity in shaping the ecological consciousness and culture of youth. It reveals the ecological meaning of proverbs, hadiths, epics, legends, and wise sayings that have existed since ancient times, highlighting their role in fostering respect, care, and love for nature.

Keywords: ecological consciousness, ecological culture, folk oral creativity, proverb, epic, hadith, legend, wisdom, education, nature.

KIRISH

Globallashuv jarayonlari kuchaygan hozirgi davrda ekologik masalalar jahon miqyosida eng muhim ijtimoiy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Atrof-muhitni ifloslanishi, okean va dengizlarga turli xil chiqindilar tashlanishi, tabiiy resurslarning kamayib borishi, iqlim o'zgarishining keskinlashuvi, o'rmonlarning kesilishi natijasida tabiiy muvozanat buzilib, bu jarayon inson salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu kabi ekologik muammolar bizning yurtimizda ham ko'p uchramoqda. Shu bois ekologik muammolarni bartaraf etish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish va inson-tabiat munosabatlarida mas'uliyatini kuchaytirish bugunki kunning ustuvor vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasida ham ekologik xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilib, bu borada keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda ekologik madaniyatni yuksaltirish masalasi nafaqat ijtimoiy muammo, balki milliy xavfsizlikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmogda. Zero, ekologik barqarorsizlik iqtisodiy rivojlanish, aholi salomatligi va jamiyat farovonligini ta'minlash mushkul. Shu bois ta'lim tizimi, mahalla, oilaviy tarbiya va ommaviy axborot vositalari orqali ekologik ongni kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan etib belgilangan. Ayniqsa, yoshlar ongiga tabiatni asrash g'oyalarini singdirishga milliy ma'naviy merosning o'ri beqiyosdir. Shu sababli yosh avlodda ekologik ong va madaniyatni rivojlantirishda xalqimizga xos tarixiy tajribalar va tarbiyaviy qadriyatlarni ta'lim-tarbiyaga tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Asrlar davomida shakllangan o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalarida – maqollar, hadislar, hikmatli so'zlar, rivoyatlar va dostonlarda tabiatni asrash, suv, yer, daraxtni muqaddas bilish g'oyalari keng o'rin olgan. Ushbu qadriyatlar yoshlar ekologik dunyoqarashiga tabiiy tarzda ta'sir etuvchi samarali tarbiyaviy omillardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yoshlarda ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirish barqaror kelajakni ta'minlashning muhim jihatidir. Ekologik madaniyatni shakllantirishda eng ta'sirli usullardan biri bu xalq og'zaki ijodidir. Chunki xalq og'zaki ijodi asrlar davomida inson tabiat o'rtasidagi bir-biriga uyg'unlikni ifodalab, ekologik g'oyalarni

rivojlantirgan va uni ma'naviy qadriyatlar sifatida mustahkamlagan. Xalq og'zaki ijodi – millatning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va axloqiy qarashlarini, avloddan avlodga yetkazib keluvchi bebaho madaniy merosdir. Unda tabiatga mehr, umi asrash va ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik g'oyalari asosiy o'rinni egallaydi. Xalq og'zaki ijodi namunalarida tabiatga oid qarashlar bevosita tarbiyaviy xarakterga ega bo'lib, ular avlodlar ongiga sezilmas va tabiiy tarzda ta'sir ko'rsatadi. Chunki bunday asarlar xalqning asrlar davomida to'plagan tajribasi, urf-odatlar, qadriyatlari hamda dunyoni idrok etish uslublarini mujassam etadi. Bu jihatdan olganda, ekologik tarbiyani shakllantirishda xalq ijodi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan ko'ra kuchliroq emotsional ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

Ekologik madaniyatni shakllantirish muhim masala ekanligi to'g'risida prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'z fikrlarini aytib o'tganlar. Unga ko'ra "Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal qilib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin". Ushbu fikrlarga ko'ra, shuni aytishimiz mumkinki, aholi orasida ekologik madaniyatni oshirishda faqat ma'muriy yo'l bilan yuqori natijaga erishib bo'lmaydi. Shu maqsadda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish ekologik tarbiyaning eng samarali yo'nalishlaridan biridir. Shuningdek, O'zbekistonning so'ngi yillardagi ekologik siyosati ham yoshlarning ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan tizimli choralarga asoslanadi. Xususan, "Yashil makon", "Bir million daraxt", "Hududlarni ko'kalamzorlashtirish dasturi" kabi respublika miqyosidagi loyihalar tabiatni asrash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda. Ushbu loyihalar doirasida yoshlarning faol ishtiroki ularni nafaqat tashabbuskorlikka, balki ekologik mas'uliyatga undaydi.

Xalq og'zaki ijodida tabiat va inson o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasi markaziy o'rinda turadi. Ayniqsa maqollar orqali ekologik fikrlash, mehnatsevarlik, tejamkorlik va tabiatni muhofaza qilish g'oyalari ifodalanadi. Masalan, xalq orasida keng tarqalgan "Daraxt ekkan – savob ekkan", "Yerni asragan – elni asraydi", "Bir daraxt kesilsa – ming dard uyg'onadi" kabi maqollar ekologik madaniyatni

shakllantirishda beqiyos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ushbu maqollar orqali yoshlar tabiatni asrashni, suv, yer va daraxtning qadrini anglashni o'rganadilar. Maqollarning tarbiyaviy kuchi shundaki, ular qisqa, lo'nda va chuqur mazmunli bo'lib, yoshlar ongiga tez singadi. Ayniqsa, ekologik mazmundagi maqollar tabiat bilan bog'liq sabab-oqibat munosabatlarini sodda shaklda yoritiladi.

Hadislar va hikmatli so'zlarda ham ekologik mazmun chuqur aks etgan. Bu yoshlarda ekologik ta'lim-tarbiyani singdirishga yordam beradi. Ekologiyaga oid hadislardan quyidagilarni misol keltirish mumkin:

- “Kim daraxt eksa, undan odam, hayvon yoki qush foydalansa bu inson uchun sadaqa hisoblanadi”;
- “Soya beruvchi daraxtni kesgan kishi boshi bilan do'zaxga tashlanadi”.

MUHOKAMA

Yuqorida keltirilgan hadislarda tabiatni asrash, daraxt ekish, atrof-muhitga mehr bilan qarash zarurligi uqtirilgan. Islom ma'rifati tabiatga zulm qilishni eng katta gunohlardan biri sifatida baholaydi. Bu esa yoshlarni ekologik mas'uliyatga, tabiat ne'matlarini qadrlashga, mahnatsevarlikka o'rgatadi. Islom manbalarida tabiatni muhofaza qilishga doir ko'plab ko'rsatmalar mavjud bo'lib, ular insonning ekologik mas'uliyatini e'tiqodiy darajaga ko'taradi. Hadislarni tarbiyaviy kuchi shundaki, ular nafaqat axloqiy me'yorlarni, balki tabiatni asrashni ham ibodat darajasiga olib chiqadi. Shu bois, hadislarni o'quv jarayonida o'rganish yoshlar ongiga ekologik fazilatlarni diniy, ma'naviy va axloqiy jihatdan chuqur singdirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalq dostonlari, rivoyatlar va ertaklarda ham inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik ramziy ma'noda ifodalangan. Masalan, “Alpomish”, “Go'ro'g'li”, “Ravshan” kabi dostonlarda tabiat – xalqning kuch qudrat manbai, hayot va poklik ramzi sifatida talqin etiladi. Bu dostonlar yosh avlodda ona zaminni muqaddas bilish, uni ardoqlash tuyg'usini uyg'otadi. Dostonlarda tabiat obrazlari nafaqat badiiy tasvir, balki axloqiy-me'yoriy ko'rsatma sifatida ham namoyon bo'ladi. Qahramonlarning kuch-qudrat manbai sifatida tog', daryo, daraxt yoki yer tasvirlanishi tabiatni poklik va hayot ramzi sifatida anglashni kuchaytiradi. Bu esa yosh avlodni tabiatni qadrlash, uni muqaddas ne'mat sifatida ko'rish tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi davrda ekologik madaniyatni shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish zaruriy ehtiyojga aylanmoqda. Maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida ekologiya fanini o'tishda xalq maqollari, dostonlar va hikmatli so'zlardan foydalanish o'quvchilarning mavzuga nisbatan qiziqishini oshiradi, bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalq ijodining badiiy-estetik ta'siri yoshlarning hissiy dunyosini boyitib, ularni tabiatni asrashga undaydi. Bugunki kunda ekologik tarbiyani tashkil etishda quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

- Xalq og'zaki ijodi namunalaridan ta'lim jarayonida foydalanish;
- Ekologik mazmundagi xalq maqollari va hikmatlarini tahlil qilish;
- Doston va rivoyatlardagi tabiatga oid g'oyalarni muhokama qilish.

Shuningdek, xalq og'zaki ijodi asosida ekologik ta'limni tashkil etishda interfaol metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. "Aqliy hujum", "Rol o'ynash", "Debat", "Insert", "Klaster" kabi metodlar yordamida maqol va rivoyatlarning mazmuni chuqur tahlil qilinadi. Bu esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ekologik muammolarga ijodiy yondashishga, tabiatga daxldorlik tuyg'usini chuqurlashtirishga yordam beradi.

Ushbu yonashuvlar yoshlarning ekologik tafakkurini chuqurlashtiradi, ularda tabiatga mas'uliyat munosabatini shakllantiradi va milliy qadriyatlarga sodiqlikni mustahkamlaydi.

XULOSA

Xalq og'zaki ijodi insoniyatning eng qadimiy ma'naviy merosi sifatida ekologik tarbiyaning bebaho manbai hisoblanadi. Shu boisdan yoshlar ongida ekologik madaniyatni shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish – nafaqat milliy qadriyatlarni tiklash, balki barqaror rivojlanish g'oyasini chuqur singdirishning samarali vositasidir. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi asosida ekologik tarbiya berish jarayonini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ekologik mavzulardagi maqol, rivoyat va dostonlarni raqamli taqdimotlar, video materiallar yoki interfaol o'yinlar orqali o'rganish yoshlarning mavzuga qiziqishini oshiradi. Bu usul nafaqat ekologik bilimlarni mustahkamlaydi, balki milliy qadriyatlarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Xalq og'zaki ijodi va

zamonaviy yondashuvlarni birlashtirish orqali yoshlar ongida “tabiat – bu inson hayotining asosi” degan tushunchani shakllantirish mumkin. Umuman olganda, xalq ogʻzaki ijodi va ekologik tarbiya oʻzaro uygʻunlashgan holda yoshlarning maʼnaviy-axloqiy barkamolligini taʼminlaydi. Chunki ekologik madaniyat faqat tabiatni asrash koʻnikmasi emas, balki insonning ichki dunyosidagi poklik, halollik, masʼuliyat, vijdon kabi fagʻzilatlarning uygʻunlashuvidir. Shu maʼnoda xalq ogʻzaki ijodi yoshlar ongida ekologik qadriyatlarni mustahkamlaydigan eng tabiiy va oson qabul qilinadigan tarbiyaviy vosita sifatida ahamiyat kasb etadi. Natijada, kelajak avlodlar ekologik muammolarga befarq boʻlmagan, milliy oʻzligiga sodiq, ekologik masʼuliyatli fuqarolar sifatida voyaga yetadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Ekologik taʼlim va tarbiyani rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”. – PQ-4412, 2019-yil 2-avgust.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz: 1-jild.– Toshkent: Oʻzbekiston, 2018. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi – Toshkent Oʻzbekiston, 2022. – 440 b.
4. *Hadislar toʻplami* – Islom manbalari asosida: Imom Ahmad ibn Hanbal “Musnad Ahmad”, At-Termiziy “Sunan at-Termiziy” asarlaridan.
5. Qodirova D. Ekologik madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlarning oʻrni – Toshkent: Fan va taraqqiyot, 2022. – 212 b.
6. Toʻxtayev S. Xalq ogʻzaki ijodi va uning tarbiyaviy ahamiyati – Toshkent: Oʻqituvchi, 2020. – 176 b.
7. Rasulova N. Yoshlar ekologik madaniyatini rivojlantirishda xalq ijodi vositalari. // Pedagogika va psixologiya – 2023. – №2. –B. 45–50.
8. Jabborova M. Ekologik taʼlim va tarbiya nazariyasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 198 b.